

**AHOLIGA DAVLAT XIZMATLARI KO'RSATISH TIZIMINI BOSHQARISHNING
ZAMONAVIY YONDASHUVLARI**

Doshmuratova Eleonora Davletbaevna

e.doshmuratova@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19680365>

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekistonda davlat xizmatlari sohasida amalga oshirilgan normativ-huquqiy islohotlar, "bir darcha" tamoyili, proaktiv va kompozit xizmatlar, raqamli identifikatsiya, idoralararo elektron hamkorlik, mobil xizmatlar, fuqaroga yo'naltirilgan servis mexanizmlari hamda sifat nazorati masalalari o'rganildi.

Tahlil natijasida davlat xizmatlarini boshqarishning zamonaviy modeli faqat raqamlashtirish bilangina emas, balki huquqiy soddalashtirish, ma'lumotlar integratsiyasi, xizmatlarni hayotiy vaziyatlar asosida loyihalash, ijtimoiy inkluzivlik va tezkor qayta aloqa mexanizmlari bilan tavsiflanishi asoslandi. Shuningdek, maqolada tizimni yanada rivojlantirish uchun ma'lumotlar almashinuvi, xodimlar malakasi, proaktiv xizmatlar ulushi va natijadorlik monitoringini kuchaytirish zarurligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: davlat xizmatlari, boshqaruv, raqamlashtirish, proaktiv xizmat, kompozit xizmat, bir darcha, YIDXP, OneID, idoralararo integratsiya, fuqaroga yo'naltirilgan yondashuv.

**СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ СИСТЕМОЙ ОКАЗАНИЯ
ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ НАСЕЛЕНИЮ**

Аннотация. В данной статье анализируются современные подходы к управлению системой оказания государственных услуг населению. В исследовании рассмотрены нормативно-правовые реформы в сфере государственных услуг в Узбекистане, принцип «единого окна», проактивные и композитные услуги, цифровая идентификация, межведомственное электронное взаимодействие, мобильные сервисы, гражданоориентированные механизмы обслуживания и вопросы контроля качества.

По итогам анализа обосновано, что современная модель управления государственными услугами характеризуется не только цифровизацией, но и правовым упрощением, интеграцией данных, проектированием услуг на основе жизненных ситуаций, социальной инклюзивностью и оперативной обратной связью. Также показана необходимость дальнейшего усиления межведомственного обмена данными, повышения квалификации персонала, увеличения доли проактивных услуг и совершенствования мониторинга результативности.

Ключевые слова: государственные услуги, управление, цифровизация, проактивная услуга, композитная услуга, единое окно, ЕПИГУ, OneID, межведомственная интеграция, гражданоориентированный подход.

**MODERN APPROACHES TO MANAGING THE SYSTEM OF PUBLIC SERVICE
DELIVERY TO THE POPULATION**

Abstract. This article analyzes modern approaches to managing the system of public service delivery to the population. The study examines legal and institutional reforms in Uzbekistan's public service sector; the one-stop-shop principle, proactive and composite services, digital identification, interagency electronic cooperation, mobile services, citizen-centered

delivery mechanisms, and quality control issues. The analysis demonstrates that the modern model of public service management is characterized not only by digitalization, but also by legal simplification, data integration, life-event-based service design, social inclusiveness, and rapid feedback mechanisms. The article also argues for the need to strengthen data exchange, staff capacity, the share of proactive services, and performance monitoring for further improvement of the system.

Keywords: *public services, management, digitalization, proactive service, composite service, one-stop shop, Single Portal, OneID, interagency integration, citizen-centered approach.*

KIRISH

Davlat xizmatlari tizimi zamonaviy davlat boshqaruvining eng sezgir va amaliy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Chunki fuqaro davlatning samaradorligini, avvalo, murakkab siyosiy hujjatlar yoki umumiy statistik ko‘rsatkichlar orqali emas, balki kundalik hayotda oladigan xizmatining tezligi, qulayligi, shaffofligi va adolatliligi orqali baholaydi. O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishdagi tub burilish 2017-yil 12-dekabrda PF-5278-son Farmon va shu sanada qabul qilingan PQ-3430-son qaror bilan bog‘liq bo‘lib, ular davlat xizmatlari milliy tizimini isloh qilish hamda Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkiliy jihatdan yo‘lga qo‘yish uchun asos yaratdi [6; 9]. Keyingi bosqichlarda davlat xizmatlari infratuzilmasini kengaytirish, xizmatlarni soddalashtirish, ortiqcha byurokratik talablarni qisqartirish, proaktiv va kompozit formatlarni joriy etish, shuningdek, ma‘lumotlarni “Raqamli hukumat” tizimi orqali almashish bo‘yicha yangi huquqiy mexanizmlar shakllantirildi [4; 5; 8; 10].

2022-yilgi PF-113-son Farmonda qayd etilishicha, o‘sha davrga qadar 207 ta Davlat xizmatlari markazi va ularning 141 ta filiali orqali jismoniy hamda yuridik shaxslarga 32 milliondan ortiq xizmatlar ko‘rsatilgan, davlat xizmatlarini ko‘rsatishning umumiy muddati deyarli 787 kundan 471 kungacha qisqartirilgan, tadbirkorlik sohasida esa 132 ta litsenziya va ruxsat berish tartib-taomili bekor qilingan [5]. 2025-yilgi BMT Davlat xizmati forumi hisobotida esa O‘zbekiston 2022–2024 yillar oralig‘ida elektron hukumat rivoji bo‘yicha sezilarli o‘shish ko‘rsatgan davlatlardan biri sifatida e‘tirof etildi [1]. Bu holat davlat xizmatlari tizimini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni ilmiy tahlil qilishni yanada dolzarb qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini O‘zbekiston amaliyoti misolida tahlil qilishdir.

Tadqiqot vazifalari sifatida: davlat xizmatlari boshqaruvining normativ-huquqiy va institutsional asoslarini ochib berish; raqamli hamda ma‘lumotlarga tayangan boshqaruv vositalarini baholash; fuqaroga yo‘naltirilgan servis mexanizmlarini tahlil qilish; tizim istiqbollari va dolzarb muammolarini aniqlash belgilandi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistondagi davlat xizmatlari milliy tizimi, predmeti sifatida esa uni boshqarishda qo‘llanilayotgan zamonaviy usullar olindi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning manba bazasini O‘zbekiston Respublikasining davlat xizmatlari sohasiga oid prezident farmonlari, qonunlar, hukumat va adliya tizimining rasmiy axborot resurslari, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali materiallari hamda BMTning 2025-yilgi Davlat xizmati forumi

doirasidagi rasmiy hisobotlari tashkil etdi [1]–[12]. Manbalar tanlashda, avvalo, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy platformalardagi tasdiqlangan ma'lumotlarga tayanildi.

Maqolada tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, institutsional tahlil, funksional baholash va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv davlat xizmatlari boshqaruvini huquqiy, tashkiliy, texnologik va kommunikativ bo'g'inlarning yagona tizimi sifatida ko'rishga xizmat qildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil yordamida 2017–2025 yillardagi islohotlarning ichki mantiqi va evolyutsiyasi ochib berildi. Funksional baholash esa "bir darcha", proaktiv xizmat, kompozit xizmat, mobil platforma, OneID, masofaviy xizmat va qayta aloqa kanallari kabi instrumentlarning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini ko'rsatishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Davlat xizmatlari boshqaruvida institutsional-huquqiy yondashuv. O'zbekistonda davlat xizmatlari tizimini boshqarishning zamonaviy modeli, eng avvalo, aniq huquqiy va institutsional poydevorga tayangan holda shakllandi. PF-5278-son Farmonda davlat xizmatlari sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan ma'muriy reglamentlarga rioya etilishini ta'minlash, axborot tizimlarini integratsiyalash va davlat xizmatlari markazlarini zarur texnik vositalar bilan jihozlash kabi vazifalar belgilangan [6]. PQ-3430-son qaror esa Agentlik va uning hududiy bo'linmalari faoliyatini tashkiliy yo'lga qo'yish orqali mazkur tizimning amaliy boshqaruv markazini yaratdi [9]. Shunday qilib, zamonaviy boshqaruvning birinchi yondashuvi — markazlashgan koordinatsiya va normativ standartlashuv yondashuvi ekani ayon bo'ladi.

2021-yilgi PF-6269-son Farmon davlat xizmatlari boshqaruviga yana bir muhim o'ldiruvchi olib kirdi. Unda 70 dan ziyod xizmat soddalashtirilgani, markazlar orqali ko'rsatiladigan xizmatlar muddati va talab etiladigan hujjatlar soni o'rtacha ikki barobarga qisqartirilgani qayd etilgan [7].

Shu bilan birga, ayni hujjatda qamrovning yetarli emasligi, xizmat muddati uzunligi, to'lovlarning yuqoriligi va ayrim idoralarning ma'lumotlari to'liq raqamlashtirilmagani muammo sifatida ko'rsatilgan [7]. Demak, zamonaviy boshqaruvda huquqiy yangilanish faqat normani ko'paytirish emas, balki muammoni aniq diagnostika qilish va reglamentni foydalanuvchi manfaatiga yo'naltirishdir.

2024-yil 7-fevraldagi O'RQ-905-son Qonunda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini tartibga solish, xizmatlar ro'yxatini kengaytirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda ayrim to'lovlarni kamaytirish zarurati qonun darajasida mustahkamlandi [10]. 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmonda esa davlat xizmatlari markazlari va YIDXP orqali joriy etiladigan xizmatlar, shuningdek proaktiv va kompozit shaklga o'tkaziladigan xizmatlar ro'yxati alohida ilovalarda belgilandi [8]. Bu davlat xizmatlarini boshqarishdagi ikkinchi muhim yondashuv — hayotiy vaziyat va jarayonlarni qayta loyihalash yondashuvining kuchayganini ko'rsatadi. Endi boshqaruv obyekti alohida idora emas, balki fuqaro ehtiyoji va uning yakuniy natijaga erishish yo'li bo'lib qolmoqda.

2. Raqamli va ma'lumotlarga tayangan boshqaruv yondashuvi. PF-113-son Farmon davlat xizmatlari boshqaruvini raqamli transformatsiya bosqichiga olib chiqdi. Mazkur hujjatda davlat xizmatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish,

ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish, xizmatlarning yangi turlari va shakllarini joriy etish hamda xalqaro reytinglarda O'zbekiston o'rnini yaxshilash ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan [4].

Shu Farmonda "raqamli iz" mexanizmini joriy qilish orqali fuqaroning bir xizmat uchun qayta-qayta so'rovnomaga to'ldirish amaliyotidan voz kechish, "hujjatlar-telefonda" tamoyili asosida mobil ilova orqali xizmat ko'rsatishni rivojlantirish hamda natijani messenger va botlar orqali yuborish singari chora-tadbirlar ham nazarda tutilgan [4]. Bu holat zamonaviy boshqaruvda ma'lumotni bir marta olish va ko'p marta foydalanish tamoyili shakllanayotganini ko'rsatadi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali davlat xizmatlarini ko'rsatishning markaziy raqamli platformasi sifatida ishlamoqda. Portal rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, unda jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va xorij fuqarolari uchun alohida bo'limlar, rasmiy yo'riqnomalar, statistika, qayta aloqa va 24/7 ishlovchi aloqa markazlari mavjud [11]. Portalning "Ma'lumotnomalar" bo'limida nikoh, o'qish joyi, ruhiy kasalliklar dispanseri, aliment qarzdorligi, identifikatsiya raqami va boshqa ko'plab ma'lumotnomalar elektron shaklda taqdim etilayotgani ko'rinadi [12]. Demak, boshqaruvning zamonaviy modeli ko'p funksiyali portallar orqali xizmatlarni nafaqat taqdim etadi, balki ularni standartlashtiradi, tasniflaydi va kuzatib boradi.

Raqamli boshqaruvning yana bir tayanch unsuri — identifikatsiya va autentifikatsiya.

OneID tizimi rasmiy ta'rifi ko'ra, "Raqamli hukumat" foydalanuvchilarining yagona identifikatsiya tizimi bo'lib, yagona akkaunt orqali davlat tizimlariga kirish imkonini beradi [2]. 2025-yilgi PF-157-son Farmonda esa 2026-yil 1-yanvardan boshlab ayrim turdagi ma'lumot va hujjatlarni aholidan talab qilish taqiqlanishi, Yagona portalda jismoniy shaxsga oid ayrim ma'lumotlar real vaqt rejimida taqdim etilishi, tezlashtirilgan tartibdagi qo'shimcha xizmatlar joriy etilishi belgilangan [5]. Bu davlat xizmatlari boshqaruvida hujjat emas, ma'lumot markazda bo'ladigan yangi modelga o'tilayotganini anglatadi.

3. *Fuqaroga yo'naltirilgan va inklyuziv boshqaruv yondashuvi.* Zamonaviy boshqaruv yondashuvlaridan eng muhimlaridan biri — fuqaroning imkoniyati, holati va ehtiyojini tizim markaziga qo'yishdir. PF-6269-son Farmonda ijtimoiy reyestrda kiritilgan kambag'al oilalar a'zolari hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun davlat xizmatlari bojlari va yig'imlariga 50 foiz, ayrim toifalar uchun esa 75 foizgacha chegirma qo'llanishi nazarda tutilgan [7]. Bu davlat xizmatlari boshqaruvida oddiy tenglik emas, balki ijtimoiy adolat va differensial qo'llab-quvvatlash mexanizmi amal qilayotganidan dalolat beradi.

Adliya vazirligining rasmiy portalida davlat xizmatlaridan joyiga chiqqan holda foydalanish uchun so'rov yuborish imkoniyati, onlayn navbat olish, video qo'llanmalar va davlat xizmatlari portaliga o'tish havolalari mavjud [3]. YIDXPning aloqa sahifasida esa 1242 raqamli umumiy savollar markazi, 1148 raqamli taklif va shikoyatlar liniyasi 24/7 rejimda ishlashi, elektron pochta va qayta aloqa formasi orqali murojaat yuborish, shuningdek MuxlisaAI orqali tezkor javob olish imkoniyatlari ko'rsatilgan [11]. Demak, fuqaroga yo'naltirilgan boshqaruvda xizmatning o'zi bilan birga unga kirish kanallari xilma-xilligi ham boshqaruv sifati ko'rsatkichi hisoblanadi.

Mazkur holat, ayniqsa, proaktiv va kompozit xizmatlar amaliyotida yaqqol namoyon bo'ladi. PF-80-son Farmon 2024-yilda proaktiv va kompozit shaklga o'tkaziladigan xizmatlar ro'yxatini tasdiqlagan bo'lsa, PF-157-son Farmon 2028-yilga qadar proaktiv davlat xizmatlari sonini 53 taga, kompozit davlat xizmatlarini esa 74 taga yetkazishni maqsad qilib qo'ygan [5; 8].

Bu boshqaruv tizimining idoraviy chegaralardan chiqib, fuqaro hayotidagi tug'ilish, ta'lim, pensiya, ijtimoiy himoya, bandlik kabi bog'liq jarayonlarni yagona servis mantiqi asosida birlashtirishga intilayotganini ko'rsatadi.

4. *Sifat, javobgarlik va natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv.* Zamonaviy boshqaruv yondashuvi faqat xizmatlarni raqamlashtirish bilangina yakunlanmaydi; u sifat nazorati, mansabdor javobgarligi va natijadorlik monitoringini ham talab qiladi. PF-5278-son Farmonda vakolatli davlat organlari rahbarlari davlat xizmatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etilishi uchun shaxsan javobgar ekani qat'iy belgilangan [6]. PF-113-son Farmonda esa davlat xizmatlarini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish, vakolatli idoralar mas'uliyatini oshirish, xodimlar malakasini kuchaytirish va xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlarni yaxshilash ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan [4]. Bu yondashuv boshqaruvning nazariy emas, balki o'lehab bo'ladigan natijadorlikka tayanganini ko'rsatadi.

PF-157-son Farmon davlat xizmatlari boshqaruvida fuqaroni himoya qiluvchi yangi kafolatni ham joriy etdi: Yagona portal, davlat xizmatlari markazlari va "Litsenziya" tizimi orqali berilgan arizalar asossiz rad etilganda, fuqarolarning murojaatlari hamda adliya organlarining xulosasiga asosan undirilgan bojlari va yig'imlarining tegishli qismi qaytariladi [5]. Bunday norma boshqaruvni faqat nazorat qiluvchi emas, balki mas'uliyatni monetar va amaliy oqibat bilan bog'lovchi modelga aylantiradi. 2025-yilgi BMT Davlat xizmati forumi hisobotida O'zbekistonning elektron hukumat rivoji bo'yicha sezilarli o'sish ko'rsatgan davlatlar qatorida e'tirof etilgani ham tizimda natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlari kuchayganini bilvosita tasdiqlaydi [1].

DISKUSSIYA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari to'rtta asosiy ustunga tayangan holda rivojlanmoqda: institutsional markazlashuv va reglamentlashuv, raqamli va ma'lumotlarga tayangan boshqaruv, fuqaroga yo'naltirilgan servis modeli, natijadorlik va javobgarlik monitoringi. Ushbu to'rtta yo'nalish bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bog'liq tarzda ishlaydi. Masalan, idoralararo integratsiya bo'lmasa proaktiv xizmat shakllanmaydi; fuqaroni identifikatsiya qilish qulay bo'lmasa mobil servislar ishlamaydi; normativ soddalashtirish bo'lmasa raqamlashtirish byurokratiyaning elektron nusxasiga aylanib qoladi. PF-113 va PF-157 hujjatlaridagi yondashuvlar aynan shu sinergetik modelni ko'rsatadi [4; 5].

Shu bilan birga, tizim oldida bir qator dolzarb vazifalar saqlanib qolmoqda. Rasmiy hujjatlarda o'z vaqtida qayd etilganidek, ayrim idoralarda ma'lumotlar to'liq raqamlashtirilmagani, xizmatlar qamrovi va tezligi bo'yicha tafovutlar borligi, ayrim hollarda to'lov va tartibotlar fuqaroga nisbatan ortiqcha yuk hosil qilishi mumkinligi tan olinadi [4; 7].

Zamonaviy boshqaruvning keyingi bosqichi shu nuqtada boshlanadi: xizmatlar sonini ko'paytirishning o'zi yetarli emas, ularni o'zaro bog'lash, takrorlanuvchi harakatlarni yo'qotish, ma'lumotlar sifatini oshirish va xodimlarning raqamli kompetensiyasini mustahkamlash talab etiladi.

Bundan tashqari, davlat xizmatlari boshqaruvida "so'rovga javob beruvchi tizim"dan "ehtiyojni oldindan sezuvchi tizim"ga o'tish zarurati kuchaymoqda. PF-157-son Farmondagi 2028-yilgacha YIDXP va markazlar orqali taqdim etiladigan xizmatlar sonini 900 taga, proaktiv

xizmatlarni 53 taga va kompozit xizmatlarni 74 taga yetkazish vazifasi aynan shu strategik siljishni ifodalaydi [5]. Demak, boshqaruvning zamonaviy yondashuvi kelgusida xizmatni idora bo'yicha emas, fuqaroning hayotiy holati bo'yicha modellashtirishga tayanadi. Bu esa davlat xizmatlari tizimining nafaqat texnologik, balki metodologik va boshqaruv falsafasi darajasida yangilanayotganini bildiradi.

XULOSA

Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari O'zbekiston misolida bosqichma-bosqich shakllangan, huquqiy asoslar, institutsional koordinatsiya va raqamli vositalar uyg'unlashgan model sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur model "bir darcha" tamoyili, idoralararo elektron hamkorlik, raqamli identifikatsiya, proaktiv va kompozit xizmatlar, mobil servislar, qayta aloqa va ijtimoiy himoya instrumentlarini bir tizimga birlashtirishga intilmoqda [4]–[9].

Maqolada asoslanganidek, zamonaviy boshqaruvning mazmuni davlat xizmatlarini oddiy elektron formatga o'tkazish bilangina cheklanmaydi. Uning mohiyati huquqiy soddalashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlatish, xizmatlarni fuqaro hayotiy vaziyatlari asosida qayta loyihalash, inklyuzivlikni ta'minlash, mansabdor javobgarligini kuchaytirish va natijani doimiy monitoring qilishda namoyon bo'ladi. Shu sababli tizimni yanada takomillashtirish uchun idoralararo integratsiyani chuqurlashtirish, ma'lumotlar sifatini oshirish, proaktiv xizmatlar ulushini ko'paytirish, xodimlar malakasini kuchaytirish hamda fuqarolardan olinadigan ortiqcha talablarni yanada qisqartirish maqsadga muvofiqdir. Aynan shu yo'l davlat xizmatlari boshqaruvini haqiqiy fuqaroga yo'naltirilgan, tezkor va ishonchli tizimga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti. *23–25 June 2025 Samarkand, Uzbekistan Report*. New York, 2025.
2. OneID. *Yagona identifikatsiya tizimi* // Raqamli hukumat foydalanuvchilarining yagona identifikatsiya tizimi //
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. *Davlat xizmatlaridan joyiga chiqqan holda foydalanish uchun so'rov yuborish*.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoni. *Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida* // www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PF-157-son Farmoni. *Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish hamda sohada byurokratik tartibotlarni tubdan qisqartirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida* // www.lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrdagi PF-5278-son Farmoni. *Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida* // www.lex.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi PF-6269-son Farmoni. *Davlat xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat*

xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida // www.lex.uz

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmoni. *Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida // www.lex.uz*
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda PQ-3430-son Qarori. *O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida // www.lex.uz*
10. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-fevraldagi O'RQ-905-son Qonuni. *Davlat xizmatlari ko'rsatish hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida // www.lex.uz*
11. O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali // www.mygov.uz
12. O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali // www.mygov.uz